

BEHBUDIYNING PUBLISISTIK MAQOLAR TAHLILI

Farg'ona davlat universiteti
filologiya fakulteti talabasi

Abdusattorova Sarvinozxon Yusufjon qizi

Anotatsiya: Ushbu maqolada M.Behbudiyning publitsistik merosining jamiyatdagi o'rni, uning bebaho asarlarining yoshlarimizning ma'naviyatiga ko'rsatgan ta'siri va Behbudi asarlariga yurtimizda ko'rsatilgan munosabat yorqin aks ettirilgan. Bulardan tashqari maqolada Behbudi hayotiga doir aniq ma'lumotlar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: Uyg'onish davri, Milliy fojia, publitsistik asarlar, jadidchilik, mahalliy matbuot, umuminsoniy qadriyatlar, diniy maqolalar, ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudi, jadidchilar.

Abstract: In this article, the place of Behbudi's journalistic legacy in society, the impact of his invaluable works on the spirituality of our youth, and the attitudes towards Behbudi's works in our country are vividly reflected. In addition to these, the article also contains specific informations about Behbudi's life.

Key words: Renaissance, a national tragedy, journalistic works, combativeness, local press, universal values, religious articles, enlightened Mahmudkhoja Behbudi, fight

Kirish: O'zbek jadid matbuoti yangi o'zbek adabiyotining shakllanib taraqqiy topishida oltin beshik vazifasini o'tadi. Ma'rifatparvar ijodkorlar, ayniqsa Turkiston jadidchiligining otasi Mahmudxo'ja Behbudi jadidchilik yo'lida bir qancha buyuk ishlarni amalga oshirgan. "Jadid" so'zi arabcha "yangi" degan ma'noni berib, taraqqiyotga intilgan kishini anglatadi. Behbudi 1875-yili 19 yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida ruhoniylar oilasida tug'ilgan.

Mutaxassislar milliy uyg'onish davri deb ataydigan XIX asr oxiri-XX asr boshlaridagi adabiy jarayonni, bu davrda yashab faoliyat ko'rsatgan, millatni yuksak madaniyat va ma'rifatga targ'ib etgan ma'rifatparvar ijodkorlar, Turkiston jadidchiligining karvonboshisi Mahmudxo'ja Behbudi merosini o'rganish bugungi kunda ahamiyatga ega.

Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistik merosini birinchilardan bo'lib o'rgangan olim professor Begali Qosimovdir. Jadidchilik adabiyotimizning yirik vakillaridan biri bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy juda bilimli, taqvodor va dindor inson bo'lgan. Behbudiy 24 yoshidagi haj safaridan so'ng muftiy darajasiga yetishadi. Haj ziyoratidan so'ng dunyo kezib ko'rgan-kechirganlarini maqola shaklida har xil gazeta va jurnallarda chop ettira boshlaydi.

Asosiy qism: Mahmudxo'ja Behbudiy XX asrning eng yorqin publisistlaridan biri edi. Behbudiyning o'zi tomonidan nashr etilgan va bosh muharrirlik qilgan "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnalida maqolalari chop qilingan Behbudiy maqolalarining mavzusi juda keng bo'lib, uning diniy mavzudagi maqolalari jamiyatning diniy ilmini oshirishga mo'ljallangan edi. Shunday maqolalaridan biri "Qur'oni karim tarixiga bir nazar" maqolasidir. Behbudiyning bu maqolasida Qur'oni karimning paygambarimiz Muhammad (s.a.v)ga qaytarzda nozil b o'lishidan boshlab, uni xalifalar kitob holiga kelturguniga qadar bo'lgan voqealar haqida bayon qilinadi.[1.2]

Xalqimizda "Inson o'tmishi bilan tirikdir" degan naql bor. "Inson uchun tarixdan judo bo'lish –hayotdan judo bo'lish demakdir". Behbudiy 1911 yilda «Padarkush» dramasini yozdi. Bu birinchi o'zbek dramasi edi. 3 parda, 4 manzarali bu asar mazmunan sodda bo'lib, o'qimagan, johil va nodon bolaning o'z otasini o'ldirgani haqida edi. Behbudiy bu asar janrini «milliy fojia» deb atagan. Nashr qilishga chor senzurasini yo'l qo'ymaydi. «Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lishining 100 yillik yubileyi sanasiga bag'ishlanadi» degan vaj bilan Tiflis (Tbilisi) senzurasidan o'tkazadi. Drama 1913-yil bosilib chiqqan, ammo sahnaga qo'yish uchun yana bir yilcha vaqt ketadi. Asar Samarqandda 1914- yil 25- yanvarda sahnaga qo'yildi. Drama xalqqa kuchli ta'sir ko'rsatadi. Abdulla Qodiriy «Baxtsiz kuyov» dramasini shuning ta'sirida yozgani ma'lum. «Padarkush» ham janr, ham mazmuniga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan asar bo'ldi. Drama Toshkentda 1914 yil 27 fevralda Avloniy tomonidan qayta sahnalashtirildi. O'sha yili Behbudiy «Samarqand» gazetasini chiqaradi. Gazeta o'zbek va tojik tillarida, haftada 2 marta chop etildi. 45-soni chiqqach, moddiy tanqislik tufayli nashr to'xtadi. Shu yil 20-avgustdan u «Oyna» jurnali chiqara boshladi. Haftalik, suratli bu jurnal

asosan o‘zbekcha bo‘lib, she‘r, maqola (forscha), e‘lonlar (ruscha) ham berib borildi. Jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqaldi. Behbudiy kitob nashrini ham yo‘lga qo‘yadi. Fitratning «Bayonoti sayyohi hindi»sini ruschaga tarjima qildirib bostirdi (1913). Behbudiy 1914-yil 29- mayda ikkinchi marta Arab mamlakatlariga sayohatga chiqadi. Sayohati davomida Bayramali, Ashxobod, Krasnovodsk, Kislovodsk, Pyatigorsk, Jelevodsk, Rostov, Odessa shaharlarida bo‘ladi, 8- iyunda Istanbulga keladi. Undan Adanaga o‘tib, yana Istanbulga qaytadi va 20- iyunda Ismoilbek Gasprinskiy bilan uchrashadi. So‘ng Quddus, Bayrut, Yofa, Xalil ar-Rahmon, Port-Said, Shom shaharlarida bo‘ladi. Sayohat xotiralari «Oyna» jurnalida bosilib turadi. Bu «xotiralar» har jihatdan muhim bo‘lib, an‘anaviy tarix-memuar janrining 20-asr boshidagi o‘ziga xos namunasi bo‘lib kelgan edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy badiiy asarlarining leksik xususiyatlarini ham zamonaviy tamoyil, qolip, fikr va ilmiy-metodologik usullar asosida o‘rganishni, ularning o‘zbek adabiy tili taraqqiyotidagi tarixiy ahamiyatini to‘g‘ri yoritish-u baholashni hamda tadqiqot natijalaridan istiqbol mafkurasini yaratishda samarali foydalanishni ijtimoiy davr taraqqiyoti taqozo etmoqda. Yangi o‘zbek adabiy tilida ijod etgan, uning rivoji-yu mukammallashishiga beqiyos ulush qo‘shgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning publitsistik asarlarining leksikasini tadqiq etish, o‘sha davr til siyosatida yuzaga kelgan. Yozuvchining tildan foydalanish mahoratini belgilashda badiiy nutq ifodaliligini qay darajada ta‘minlay olganligiga e‘tibor qaratiladi. Buni ko‘p ma‘noli so‘zlarni o‘z o‘rnida, muayyan estetik maqsad bilan qo‘llay olishidan ham aniqlasa bo‘ladi. Ko‘pma‘noli so‘zlar nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga ko‘maklashuvchi lisoniy vosita hisoblanadi.

Masalan: Yuk so‘zi o‘zbek tilida ko‘p ma‘noli so‘z hisoblanadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida mazkur so‘zning quyidagi ma‘nolari qayd qilingan:

- 1) «Bir yerdan ikkinchi yerga ko‘tarib, tashib borilishi lozim bo‘lgan og‘irlik»;
- 2) «Kishini urintirib qo‘yadigan, tashvishga soladigan ortiqcha narsa, tashvish, dahmaza»;
- 3) «Qorindagi bola, homila»;
- 4) «Diniy e‘tiqodga ko‘ra aziz-avliyolarni ranjitish tufayli yuz beradigan kasallik».

Mahmudxo‘ja Behbudiy adabiyot, tarix fanlari qatori siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug‘ullanadi. Ro‘znoma va oynomalardan jahonda sodir bo‘layotgan siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishib boradi. Maktab, madaniyat, ma‘rifatparvarlik g‘oyalarning targ‘iboti ushbu maqolalarning markazida turardi. Xususan, qrim-tatar allomasi Ismoil Gaspirali (Gasperinskiy) va u bosh muharrir bo‘lgan «Tarjimon» gazetasi M. Behbudiyning buyuk ma‘rifatchi va o‘zbek milliy jadidchilik yo‘nalishining otasi darajasiga ko‘tardi. Behbudiy dunyoqarashida Rossiyadagi eng nufuzli bo‘lgan kadetlar partiyasi a‘zolari bilan uchrashuv va ular harakatnomalarining ta‘siri ham katta bo‘lgan. U Turkiya, Misrga borib, u yerdan muhim kitoblar, o‘quv qo‘llanmalarini olib keladi, yangi usuldagi maktab dasturi ustida ishlashga kirishadi. Biroq, u turli to‘siqlarga uchrab, «jadidlar rahnamosi», «dahriy» deb e‘lon qilinadi. Shunga qaramay, u tatar mutafakkiri Ismoil Gaspiralining ma‘rifatchilik borasidagi ta‘limotini qo‘llab-quvvatlab, o‘z o‘lkasida ham shunday ishlarni amalga oshirishga kirishadi va ko‘p o‘tmay ma‘rifatparvar sifatida o‘z xalqi hurmatiga sazovor bo‘ladi. U bir qator Sharq va G‘arb tillarini bilgan yuksak madaniyat sohibi bo‘lishi bilan birga, umuminsoniy madaniyatning tolmas targ‘ibotchisi ham bo‘lgan.

Xulosa: Mahmudxo‘ja Behbudiyning ulkan xizmatlari, ilmiy faoliyati, tarixnavisligi, umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishi, o‘zbek adabiyoti va san‘ati oldidagi fidoiyligi yuksak hurmatga sazovor. U o‘zbek xalqining zabardast o‘g‘loni, yetuk marifatparvar adibi va jamoatchlik tomonidan tan olingan olimi edi. U xalqni qo‘llab-quvvatlash, islohotlar yo‘li bilan Turkiston iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish, milliy ma‘naviyatni shakllantirib, aholi osoyishtaligini ta‘minlash borasida ijobiy ishlar qilindi. Prezidentimiz ta‘kidlaganlaridek ” Endigi vazifa orzu umidlari haqqi avlodlarimizga siz-u bizning farzandlarimizga butun dunyo bilan teppa-teng bo‘ylashadigan buyuk O‘zbekistonni meros qilib qoldirmoqlikdir”. Bu yo‘lda biz yoshlar ham sobit qadam turmog‘imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – T., O‘qituvchi, 1983.

2. Jalolov A. Jadid adabiyotida milliy ozodlik va istiqloq g'oyalari // O`TA, 1996, 4-son.
3. Qosimov B. Maslakdoshlar. – T., Sharq, 1994. – 160 b.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T., «Xalq merosi» nashriyoti, 2004